

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраhon Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

ВМЕСТЕ СОЗДАВАЯ БУДУЩЕЕ СОЦИАЛЬНОЙ НАУКИ.....	6
1. Сейтов Азамат ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ КАК ЛИДЕРОВ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	8
2. Xolbekov Abdug‘ani ШАХС ИЖТИМОЙИ ФАОЛИЯТИ ОМИЛЛАРИ ВА СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ (7 “Г” ФОРМУЛАСИ ТАЛҚИНИДА).....	16
3. Farfiyev Baxramdjan, Abdupattaev Mumin Mirzo DUNYOVIYLIK VA DINIYLIK UYG‘UNLIGI, BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – IJTIMOIY BARQARORLIK ASOSI.....	23
4. Abduraxmonova Manzura KAM TA‘MINLANGAN OILALAR TUSHUNCHASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	32
5. G‘afforova Mavlyuda SIYOSIY YETAKCHINING SHAKLLANISHI VA UNDA IMIJNING O‘RNI.....	40
6. Seitova Zuhra AL-FOROBIIY: FALSAFA, AXLOQ VA SIYOSIY FIKRLAR.....	48
7. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SIFATI TALABALAR NIZOHIDA: SOTSIOLOGIK TADQIQOT NATIJALARI.....	53
8. Kamalova Khatira QARAQALPAQ XALQÍ HAYAL-QÍZLARÍNÍN JÁMIETLIK-SIYASIY BELSENDILIGI.....	60
9. Якубов Ильдар ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КНР.....	72
10. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING IJTIMOIY NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	79
11. Hojiyev Zavqiddin IJTIMOIY XAVFSIZLIK: ILMIY-NAZARIY VA SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	88
12. Axmedova Feruza TIBBIYOT IJTIMOIY INSTITUT SIFATIDA.....	96
13. Akramov Xusan ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOIY ME‘YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	106
14. Axmedov Qaxramon IJTIMOIY XODIMLARNI TAYYORLASHDA PROFESSIONAL TA‘LIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY JIHATLARI.....	112
15. Raximova Shaxnoza AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	123
16. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARINI JORIY ETISH.....	131

17. Kamilov Farxod	
INTERNAT MUASSASALARINI NOINSTITUTIONALLASHTIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	142
18. Razzakova Nargis	
MUSTAHKAM OILAVIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI VA TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONI.....	150
19. Axmedova Ra'no	
O'ZBEKISTON YOSHLARI FAROVONLIGINING TAHLILI: JAHON QADRIYATLARI TADQIQOTI (WORLD VALUES SURVEY) MA'LUMOTLARI ASOSIDA.....	157
20. Мирзаева Шахноза	
ЖЕНСКОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ: РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	165
21. Вахидова София	
ЭВОЛЮЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТ БЭБИ-БУМЕРОВ ДО ПОКОЛЕНИЯ X.....	174
22. Bozorova O'limaxon	
IJTIMOYIY KAPITALNING MINTAQAVIY O'ZIGA XOSLIKLARI: SHARQ VA G'ARB TAJRIBASI.....	183
23. Ruyiddinova Aisha	
INSON ONGIDAGI AXBOROT STEREOTIPLARINING ISHONCHLI AXBOROTGA TA'SIRI.....	195
24. Tursunboyev Jahongir	
SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI.....	201
25. Raximbayeva Oftobxon	
ZAMONAVIY RAHBARLARDA KASBIY VA IJTIMOYIY KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	208
26. Sharopov Sadriddin	
INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV FAOLIYATI SAMARADORLIK OMILI SIFATIDA.....	215
27. Burxanov Xusniddin	
RAQAMLI JAMIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA ALGORITMIK YONDASHUVLAR.....	224
28. Mamaziyaeva Nargiza	
O'ZBEKISTON VA TURKIYADA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OQILONA OVQATLANISH AMALIYOTINING QIYOSIY TAHLILI.....	232
29. Murodova Fotimabonu, Axmedova Feruza	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SOTSIOLOGIYA: MILLIY HOLAT VA XALQARO TAJRIBALAR.....	238


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Akramov Xusan,

O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, sots.f.f.d (PhD)
x.f.akramov@proacademy.uz

ISLOMIY QADRIYATLAR VA IJTIMOY ME’YORLAR: IMOM AL-BUXORIY HADISLARINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18354941>

ANNOTATSIYA

Maqolada islomiy qadriyatlar va ijtimoiy me’yorlarning jamiyat barqarorligidagi o‘rni hamda Imom al-Buxoriy hadislarida ijtimoiy me’yor va sanksiyalarning ifodalanishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi din sotsiologiyasi, normativ tahlil, ijtimoiy tizimlar nazariyasi va qiyosiy yondashuvlarga asoslanadi. Ilmiy yangiligi shundaki, maqolada hadislarning ijtimoiy integratsiya, nizolarni hal etish va jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi roli E. Durkheim, M. Weber, T. Parsons va P. Bourdieu nazariyalari bilan solishtiriladi. Amaliy ahamiyati diniy qadriyatlarining ijtimoiy uyg‘unlik va adolatni ta’minlashdagi o‘rni hamda ijtimoiy siyosatga tatbiq etilish imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Islom, sotsiologiya, ijtimoiy me’yorlar, sanksiyalar, din sotsiologiyasi, hadis, Imom al-Buxoriy, ijtimoiy barqarorlik.

Акрамов Хусан,

Доцент Академии правоохранительных органов
Республики Узбекистан, кандидат социологических наук (PhD)
x.f.akramov@proacademy.uz

ИСЛАМСКИЕ ЦЕННОСТИ И СОЦИАЛЬНЫЕ НОРМЫ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ХАДИСОВ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ

АННОТАЦИЯ

В статье научно анализируется роль исламских ценностей и социальных норм в обеспечении стабильности общества, а также отражение социальных норм и санкций в хадисах Имама аль-Бухари. Методология исследования основана на социологии религии, нормативном анализе, теории социальных систем и сравнительном подходе. Научная новизна заключается в том, что в статье рассматривается роль хадисов в социальной интеграции, разрешении конфликтов и обеспечении стабильности общества в сопоставлении с теориями Э. Дюркгейма, М. Вебера, Т. Парсонса и П. Бурдьё. Практическая значимость выражается в определении роли религиозных ценностей в обеспечении социальной гармонии и справедливости, а также в возможности их применения в социальной политике.

Ключевые слова: Ислам, социология, социальные нормы, санкции, социология религии, хадис, Имам аль-Бухари, социальная стабильность.

Akramov Khusan,
Associate Professor, Academy of Law Enforcement
of the Republic of Uzbekistan, PhD in Sociology
x.f.akramov@proacademy.uz

ISLAMIC VALUES AND SOCIAL NORMS: A SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF IMAM AL-BUKHARI'S HADITHS

ABSTRACT

The article provides a scientific analysis of the role of Islamic values and social norms in ensuring societal stability, as well as the expression of social norms and sanctions in the hadiths of Imam al-Bukhari. The research methodology is based on the sociology of religion, normative analysis, social systems theory, and comparative approaches. The scientific novelty lies in examining the role of hadiths in social integration, conflict resolution, and the maintenance of societal stability in comparison with the theories of E. Durkheim, M. Weber, T. Parsons, and P. Bourdieu. The practical significance is revealed in highlighting the role of religious values in fostering social harmony and justice, as well as their potential application in social policy.

Keywords: Islam, sociology, social norms, sanctions, sociology of religion, hadith, Imam al-Bukhari, social stability.

KIRISH

Jamiyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy me'yor va sanksiyalar muhim o'rin tutadi. Globallashuv sharoitida ijtimoiy tartib buzilishi, zo'ravonlik va beqarorlik me'yoriy tizimlarning zaiflashuvi bilan bog'liqdir. Din, ayniqsa Islomiy qadriyatlar, jamiyatda axloqiy qadriyatlar manbasi bo'lish bilan birga ijtimoiy tartibni barqarorlashtiruvchi asosiy institutdir. Mazkur maqola Imom al-Buxoriy hadislarining ijtimoiy me'yor va sanksiyalarni shakllantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan ochib beradi.

Bugungi ijtimoiy muhitda jamiyatni barqaror saqlash va adolatli boshqarish uchun asos bo'luvchi ijtimoiy me'yor va sanksiyalar tizimini tushunish dolzarb masalalardan biridir. Ijtimoiy fanlarda bu tizimlar ko'pincha tarixiy, huquqiy yoki siyosiy kontekstda o'rganiladi. Ammo Islom sivilizatsiyasi o'z ijtimoiy tartibini Qur'on va hadislar asosida shakllantirgan bo'lib, ayniqsa, Imom al-Buxoriy tomonidan to'plangan "Al-jome' as-sahih" hadislar to'plami musulmon jamiyatlarida axloqiy va huquqiy me'yorlar evolyutsiyasining asosiy manbasi hisoblanadi.

Maqola islomiy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarning jamiyat barqarorligi hamda ijtimoiy integratsiyani ta'minlashdagi o'rni haqida keng qamrovli ilmiy izlanishdir. Muallif tadqiqot metodologiyasini din sotsiologiyasi, normativ tahlil, ijtimoiy tizimlar nazariyasi va qiyosiy yondashuvlarga asoslagan. Bu esa mavzuni klassik va zamonaviy sotsiologik nazariyalar – E.Durkheim, M.Weber, T.Parsons va P.Bourdieu qarashlari bilan uyg'unlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Asrlar oldin, insoniyat sivilizatsiyani anglaganidan beri diniy e'tiqodlarni ham tan olgan. Vaqt o'tishi bilan insonlar dinni hayotlarida muhim o'ringa qo'yganlar, hattoki din erkinligiga bo'lgan huquq inson huquqlaridan biri sifatida davlat tomonidan himoyalangan bo'lgan. Biroq, inson faqatgina o'z e'tiqod qilgan xudosi bilan yashamaydi, u – ijtimoiy mavjudot bo'lib, jamiyatda boshqa insonlar bilan birga hayot kechiradi. Diniy sotsiologiya esa sotsiologiya fanida yangi mavzu emas, chunki "diniy sotsiologiya" atamasi ikki asosiy so'zdan iborat: sotsiologiya va din.

Etimologik jihatdan, "din" so'zi sanskrit tilidan olingan bo'lib, "hayot tarz"i degan ma'noni anglatadi. Bu ifodaning yana bir muqobili – lotincha religio so'zidan kelib chiqqan religion bo'lib, u re-ligare fe'lidan olingan va "eslash" degan ma'noni bildiradi. Ya'ni, dindor bo'lish orqali inson o'zini Xudoga eslatadi. Maks Myullarning fikriga ko'ra, religio dastlab "Xudodan qo'rqish, ilohiy narsalar haqida chuqur mulohaza yuritish, taqvo" ma'nolarida ishlatilgan. Ko'plab mutaxassislar dinni insonning g'ayritabiiy olami, ayniqsa Xudo bilan munosabatlarini, insonlarning o'zaro

munosabatlarini hamda insonning o'z atrof-muhiti bilan bo'lgan munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar majmui sifatida ta'riflaydi [1].

Din sotsiologiyasi diniy qadriyatlar va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tahlil qiladi. E.Durkheim [2] diniy marosimlarni jamiyatni birlashtiruvchi mexanizm sifatida ko'rsatadi. M. Weber [3] diniy qadriyatlarining iqtisodiy hayotdagi rolini asoslab bergan. T.Parsons [4] diniy ijtimoiy tizimlarda integratsiya va legitimatsiya funksiyasini bajaruvchi institut sifatida talqin etadi. P.Bourdieu [5] esa diniy maydonni ramziy kapital sifatida izohlaydi.

Jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida din muqobil yechim sifatida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, muayyan muammolarni har bir individni kuzatish orqali hal qilib bo'lmaydigan holatlarda. Bunday holatlarda jamiyat muhitidagi noaniqlik va cheklovlar sababli muammo kengroq yondashuvni talab qiladi. Agar din o'z rolini to'g'ri va samarali bajara olsa, jamiyat farovonlik, tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikda yashaydi. Ijtimoiy o'zgarishlarga duch kelayotgan jamiyat uchun dinning o'rni nihoyatda muhimdir [6].

METODOLOGIYA

Bu esa shuni anglatadiki, din jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar va me'yorlar haqida ta'lim beradi hamda jamiyat tomonidan hayotiy yo'lboshlovchi sifatida qabul qilinadi. Chunki din o'z ta'limotlari orqali mavjudotlarni, ayniqsa, insonni tarbiyalaydi va tartibga soladi. Buning asosiy maqsadi – insonlar kundalik hayotda to'g'ri yo'nalishda harakat qilsinlar va bu orqali ular dunyoda va oxiratda omon bo'lsinlar [7]. Umuman olganda, dinning ijtimoiy tuzilmalar va me'yorlarni shakllantirishdagi roli quyidagicha ifodalanadi:

Birinchidan, qadriyatlar tizimini taqdim etadi. Din jamiyatdagi me'yor va qoidalarning asosini tashkil etuvchi qadriyatlar tizimini taqdim etadi. Din individual xulq-atvor hamda ijtimoiy munosabatlarda nima to'g'ri va nima noto'g'ri ekanligi borasida yo'l-yo'riq bera oladi [8].

Ikkinchidan, ijtimoiy birdamlikni saqlaydi. Din jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Diniy amaliyotlar orqali shaxslar bir diniy jamiyat a'zolari sifatida bir-birlari bilan bog'langanliklarini his qiladilar. Din, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va uchrashuv joylarini taqdim etib, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy o'zaro aloqalarni tartibga soladi. Din diniy qoidalar va marosimlar orqali ijtimoiy o'zaro munosabatlarni tartibga solishi va ijtimoiy tuzilmalarni shakllantirishi mumkin. Diniy me'yorlar odamlar qanday muloqot qilishlarini yo'naltiradi hamda shaxslar, oilalar va jamoalar o'rtasidagi munosabatlar uchun yo'l-yo'riqlarni belgilaydi.

To'rtinchidan, ijtimoiy rollarni belgilaydi. Din jamiyatdagi ijtimoiy rollarning taqsimotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Diniy ta'limotlar ko'pincha jins, yosh yoki diniy ierarxiyadagi mavqega qarab insonlarga muayyan vazifalar va mas'uliyatlarni yuklaydi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalarni shakllanishiga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, din kuch va ijtimoiy nazorat manbai sifatida ham harakat qiladi. Din jamiyatda kuch va ijtimoiy nazorat manbai sifatida muhim rol o'ynaydi. Din hokimiyatni qo'lga kiritish va uni saqlab qolish vositasi bo'lishi, shuningdek, diniy me'yorlar va qoidalar orqali shaxsiy va guruhiy xulq-atvorni tartibga solishi mumkin [9]. Dinning kuch va ijtimoiy nazorat manbai sifatidagi ta'siri quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, axloqiy va etik ta'sir. Din shaxsiy va guruhiy xulq-atvorni shakllantiruvchi axloqiy va etik asosni taqdim etadi. Diniy me'yorlar qanday harakatlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini belgilaydi hamda diniy qadriyatlarga zid bo'lgan xatti-harakatlarga nisbatan ijtimoiy sanksiyalarni joriy etadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy tartibni saqlash. Din jamiyatda ijtimoiy tartibni saqlash vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Diniy qoidalar va qadriyatlar xulq-atvorni yo'naltiradi hamda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi me'yorlarni shakllantiradi, bu esa mojarolar va betartiblikning oldini oladi.

Uchinchidan, diniy hokimiyat. Diniy yetakchilar va diniy institutlar jamiyatda kuchli ta'sir va hokimiyatga ega bo'lishi mumkin. Ular ijtimoiy siyosatga ta'sir ko'rsatishi, mojarolarni hal etishda vositachilik qilishi va jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi mumkin.

To'rtinchidan, bilim va axborot ustidan nazorat. Din ko'pincha jamiyatdagi bilim va axborot ustidan nazorat vositasi sifatida xizmat qiladi. Diniy institutlar diniy bilimlarga kirishni nazorat qilishi va diniy e'tiqodlar hamda aqidalarni shakllantirish va tarqatishda muhim rol o'ynashi mumkin [10].

ASOSIY QISM

Payg'ambar sunnatlari – musulmonlar uchun asosiy huquqiy manbalardan va hayotiy yo'l-yo'riqlardan biridir. Sunnatlarda hayotning turli jabhalariga, jumladan, din va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga, ijtimoiy muloqotga, mojarolar va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga doir ko'plab ko'rsatma va yo'riqnomalar mavjud [11]. Biroq, shuni yodda tutish lozimki, bu hadislardagi mazmuni to'g'ri tushunish uchun ularni ehtiyotkorlik bilan va to'g'ri kontekstda tahlil qilish zarur. Quyida mavzuga oid bo'lgan ayrim hadislar keltiriladi:

Birinchidan, ijtimoiy muloqot. Payg'ambar hadislarida jamiyatda chiroyli muomala qilish muhimligi tez-tez ta'kidlanadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: "O'ziga nima yoqsa, birodariga ham shuni ravo ko'rmagan kishi to'laqonli imon egasi emas" [12]. Ushbu hadisi sharifda Payg'ambarimiz ijtimoiy muloqotda mehr-oqibat va rahm-shafqat muhimligini urg'ulaydilar. U kishi musulmonlarni boshqalarga o'zlariga qanday munosabatda bo'lishlarini istasalar, boshqalarga ham shunday munosabatda bo'lishga chaqirganlar.

Ikkinchidan, nizo va mojaroni hal qilish. Ko'plab hadislar mojarolarni tinch va adolatli yo'l bilan hal qilish haqida so'z yuritadi. Shulardan biri musulmonlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish to'g'risidagi hadislardir: "Kimki bir musulmon birodaridan nafratlansa va undan yuz o'g'irsa, gunoh bilan unga qaytadi; kimki musulmon birodarining molini nohaq olsa, aslida u do'zaxdan o't olayapti" [12]. Ushbu hadisi sharifda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam mojarolardan qochishga va ularni to'g'ri yo'l bilan hal qilishga da'vat qilganlar. Zero, noto'g'ri hal etilgan mojarolar nafaqat ijtimoiy munosabatlarga, balki oxirat hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, ijtimoiy o'zgarish. Payg'ambar hadislar Islomning ijtimoiy o'zgarishlarga qanday moslasha olishini ham ko'rsatadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: "Kimki jamiyat holatidagi o'zgarishlarga moslashmasa, u mendan emas" [13]. Bu hadisi sharifda Payg'ambarimiz ijtimoiy o'zgarishlarga moslashishning muhimligini ta'kidlaydilar. Ammo bu moslashuv Islom asosiy prinsiplariga zid bo'lmasligi kerak.

Yuqoridagi hadislar mazmunini anglab, ularga amal qilish orqali musulmonlar mehr-oqibatli, mojarolardan xoli va ijtimoiy o'zgarishlarga moslasha oladigan jamiyat barpo eta oladilar. Bu esa Islom nuqtayi nazaridan sotsiologiya va din o'rtasidagi integratsiyaning naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, yuqorida zikr etilgan Payg'ambar sunnatlaridagi ta'limotlarni anglab yetish va ularga amal qilish musulmonlarga yanada yaxshi va hamjihat jamiyat barpo etishda yordam berishi mumkin [14]. Islom nuqtayi nazaridan sotsiologiya va din o'rtasidagi integratsiya juda muhimdir, chunki bu musulmonlarga turli zamon va makonlarda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarga o'z diniy qadriyatlariga mos ravishda yondashish imkonini beradi.

Islomiy qarashda sotsiologiya va din integratsiyasining ayrim foydalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, muammolarni chuqurroq anglash. Ushbu integratsiya musulmonlarga jamiyatdagi muammolarning ijtimoiy ildizlarini tushunishga va ularga Islom ta'limotlariga mos yechimlar topishga yordam beradi. Shu tariqa, ular yanada samarali va dolzarb amaliy choralarni ishlab chiqishlari mumkin.

Ikkinchidan, mojarolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Tinchlik va adolat asosida mojarolarni hal qilishni o'rgatuvchi hadislar musulmonlarga nizolarni zo'rvonliksiz boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Bu esa jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuv. Tez o'zgarayotgan dunyoda sotsiologiya va din integratsiyasi musulmonlarga diniy qadriyatlarini yo'qotmagan holda ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish imkonini beradi. Bu ularga o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda dolzarb bo'lib qolishlariga yordam beradi.

To'rtinchidan, yanada farovon jamiyatni barpo etish. Sevgi, tinchlik va adolat asosida qurilgan jamiyat orqali, Islomiy yondashuvda sotsiologiya va din integratsiyasi yanada farovon va adolatli jamiyat barpo etilishiga hissa qo'shishi mumkin. Biroq, diniy ta'limotlarning talqinlari va qo'llanishi

turlicha bo'lishi mumkinligini unutmaslik kerak. Shuningdek, diniy matnlarning tegishli konteksti va Islom huquqini chuqur tushunish zarur. Bundan tashqari, jamiyatdagi turli qarashlarga nisbatan ochiq va bag'rikeng yondashuv ijobiy integratsiyani ilgari surishda muhim rol o'ynaydi.

Agar fikrlarimizni umulashtiradigan bo'lsak, quyidagicha interpretatsiya qilishimiz mumkin:

1. Din va ijtimoiy me'yorlarning o'zaro aloqasi – Din nafaqat ruhiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy tartib va me'yorlarning asosiy manbaidir.

2. Hadislarning normativ va sanksion kuchi – Imom al-Buxoriy hadislarida ijtimoiy birdamlik, adolat, mojarolarni tinch hal etish, mehr-oqibat kabi qadriyatlar me'yoriy tizim sifatida mustahkamlanadi.

3. Sotsiologik nazariyalar bilan uyg'unlik:

– E.Durkheim: diniy marosimlarni jamiyatni birlashtiruvchi mexanizm sifatida ko'rsatgan.

– M.Weber: dinning iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi rolini izohlagan.

– T.Parsons: dinni ijtimoiy tizimlarda integratsiya va legitimatsiya funksiyasini bajaruvchi institut sifatida talqin etadi.

– P.Bourdieu: dini ramziy kapital sifatida izohlaydi. Hadislar ana shu nazariy tushunchalar bilan uyg'un tahlil etilgan.

4. Islomiy qadriyatlarning amaliy ahamiyati – Ular ijtimoiy uyg'unlik, tinchlik va adolatni ta'minlashda, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda asos bo'la oladi.

Ushbu kontsepsiyalarning muhim jihatlari quyidagilarda namoyo'n bo'ladi:

- Hadislar insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat va odob-axloqni mustahkamlaydi.

- Mojarolarni hal etishda tinchlik va adolatni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi.

- Ijtimoiy o'zgarishlarga moslashishda Islom qadriyatlarining moslashuvchanligi ko'rsatib o'tilgan.

- Din jamiyatdagi nazorat, axloqiy asos, ijtimoiy birdamlik va rollarni belgilashda muhim institut sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyat ijtimoiy munosabatlar to'qimasidir va jamiyat doimiy ravishda o'zgarib turadi. Kichik jamoalarda dinni o'rganishda, odatda, ular e'tiqod qiladigan diniy e'tiqodlari juda kuchli va qalin bo'ladi, ammo zamonaviylashuv hayoti ularni yangi muhit ta'sirida buzib yuborgan kabi ko'rinadi. Bu holat ko'pincha diniy ta'sirning yetishmasligi, dinning noto'g'ri talqini va diniy qoidalar hamda tavsiyalarining kam qo'llanilishidan kelib chiqadi. Din ijtimoiy hayotda juda yaqin aloqaga ega bo'lib, jamiyatda yuzaga keladigan va empirik usullar bilan hal qilib bo'lmaydigan muammolarni yengib o'tishda muhim vazifa va rol o'ynaydi. Ushbu o'zgarishlarda diniy ishtirokning ahamiyati – ma'naviy unsurlarni shakllantirishdan iborat bo'lib, buning natijasida din vakillari itoatkor bo'lishi va tinchlik topishi, shuningdek, uyg'unlik va boshqa din vakillarining e'tiqodlariga hurmat ko'rsatish kabi universal tushunchalarni hosil qilishi kutiladi.

Din sotsiologiyasi – bu dinni muhokama qiluvchi sotsiologiyaning bir qismi sifatida paydo bo'lgan soha. Ijtimoiy fakt paradigmasida din jamiyatdagi normalarning bir qismi sifatida, ya'ni diniy normalar sifatida strukturaga joylashtiriladi. Garchi ushbu paradigma empirik sotsiologiyaga qarshi turadigan *epifenomenal* (Epifenomenal – bu tushuncha falsafa va ong nazariyasida ishlatiladi. U asosan epifenomenalizm g'oyasidan kelib chiqadi. Epifenomenalizm – ong holatlari (fikrlar, xotiralar, his-tuyg'ular) faqat jismoniy (fiziologik) jarayonlarning natijasi deb qaraladi va ular o'z navbatida bu jarayonlarga ta'sir ko'rsatmaydi. Ya'ni, ongiy hodisalar ikkilamchi, faqat "yon mahsulot" sifatida mavjud bo'ladi. Bu tushuncha René Descartesning dualist qarashlariga nisbatan zamonaviy reaksiya sifatida paydo bo'lgan. Ong mavjud, lekin u hech qanday sabablilikda ishtirok etmaydi, deya qaraladi.) dinni rad etishga moyil bo'lsa-da, ular dinni ijtimoiy haqiqatning bir qismi sifatida tan olishdan voz kecha olmaydi [15].

Din jamiyatda ijtimoiy normalar va qadriyatlarni shakllantirishda kuchli ta'sirga ega. Dinning ijtimoiy normalar va qadriyatlarni shakllantirishdagi ta'siri diniy an'analar, diniy ta'limotlarning talqini hamda maxsus ijtimoiy-madaniy kontekstga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, umumiy qilib aytganda, din jamiyatdagi ijtimoiy normalar va qadriyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Dinning ijtimoiy institutlarni o'zgartirishdagi ta'siri ham ijtimoiy kontekst, diniy an'ana va diniy ta'limotlarning talqiniga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Shunga qaramay, umuman olganda, din ijtimoiy institutlarda ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirish uchun axloqiy yo'l-yo'riq, qadriyatlar va ijtimoiy adolat, farovonlik hamda tinchlikka erishish istaklarini taqdim etish orqali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Imom al-Buxoriy hadislarida ifodalangan diniy qadriyatlar ijtimoiy me'yor va sanksiyalar tizimini barqarorlashtirishda muhim manba hisoblanadi. Din va sotsiologiya integratsiyasi jamiyatda barqarorlik, birdamlik va adolatni ta'minlaydi. Kelgusida hadislarining empirik tadqiqi diniy qadriyatlarining zamonaviy ijtimoiy tizimlardagi rolini chuqurroq ochib beradi.

Maqola shuni ko'rsatadiki, Imom al-Buxoriy hadislarida ifodalangan qadriyatlar zamonaviy ijtimoiy nazariyalar bilan uyg'un tahlil qilinsa, jamiyat barqarorligi va adolatli boshqaruvni ta'minlashda samarali metodologik asos yaratadi. Din sotsiologiyasi doirasida hadislar:

- Normativ tizimni shakllantiradi – axloqiy me'yorlarni mustahkamlaydi.
- Integratsion vazifani bajaradi – jamiyatni birdamlikka chorlaydi.
- Mojarolarni hal etadi – tinchlik va adolatni ustuvor qiladi.
- Moslashuvchanlikni ta'minlaydi – ijtimoiy o'zgarishlarga diniy qadriyatlar bilan mos yondashishga yo'l ochadi.

Takliflar:

1. Hadislarni zamonaviy ijtimoiy siyosat va boshqaruv tizimlariga tatbiq qilish orqali adolatli boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlash.
2. Ta'lim va tarbiya jarayonida hadislarining ijtimoiy ahamiyatini keng targ'ib qilish.
3. Din sotsiologiyasi tadqiqotlarida hadislarini empirik usullar bilan o'rganish, jamiyatdagi real ijtimoiy jarayonlar bilan qiyosiy tahlil qilish.
4. Ijtimoiy birdamlikni kuchaytirishda hadislarining o'rni bo'yicha maxsus amaliy dasturlar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, maqola diniy qadriyatlar va sotsiologik nazariyalar uyg'unligi asosida jamiyat barqarorligi masalasini yoritib, hadislarining zamonaviy ijtimoiy hayotdagi amaliy ahamiyatini ilmiy asosda ochib beradi. Bu tadqiqot natijalari sotsiologiya fanida yangi ilmiy yo'nalishlarga turtki bo'lishi, ijtimoiy siyosat uchun esa amaliy qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

-
- Myuller M. *Studies in Comparative Religion*. – London: Longmans, 1892.
- Durkheim E. *Les formes élémentaires de la vie religieuse*. – Paris: Alcan, 1912.
- Weber M. *Die protestantische Ethik und der Geist des Kapitalismus*. – London: Allen & Unwin, 1905.
- Parsons T. *The Social System*. – New York: Free Press, 1964.
- Bourdieu P. *Religion and Symbolic Power*. – Cambridge: Polity Press, 1991.
- Christiano K., Swatos W., Kivisto P. *Sociology of Religion*. – New York: Rowman & Littlefield, 2015.
- Warner R.S., Walker A. *Religion and the Social Order*. – New York: Springer, 2011.
- Groenendyk E. et al. *Values and Social Norms in Contemporary Sociology*. – London: Routledge, 2023.
- Stern P. et al. *Religion, Power, and Social Control*. – Oxford: Oxford Univ. Press, 1999.
- Welch M. et al. *Sociology of Religion*. – New York: Routledge, 2004.
- Salleh M. *Prophetic Tradition and Social Harmony*. – Kuala Lumpur: IIUM Press, 2019.
- Al-Buxoriy M. *Ibn Ismoil. Al-jome' as-sahih*. – Qohira, 1978.
- Al-Buxoriy M. *Ibn Ismoil. Al-jome' as-sahih*. – Bayrut, 2001.
- Permana D. *Sociology of Religion in Islam*. – Jakarta: UI Press, 2019.
- Robinson H. *Epiphenomenalism* // *The Stanford Encyclopedia of Philosophy* / Ed. by E.N.Zalta. – Winter 2020

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000